

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>T.S.Axmedova</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati .....	214
<b>Z.O.Qosimoy</b>	
Oliy tibbiy ta'lim talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini.....	218
<b>M.A.Usmanov</b>	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
<b>A.A.Minavarov</b>	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
<b>G.K.Usmanova</b>	
Tibbiyot ta'lim muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati .....	231
<b>X.A.Madaminov</b>	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchligi muammosi.....	234
<b>C.Y.Анварбекова</b>	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике.....	238
<b>Д.М.Азимова</b>	
Дистанционное образование в обучении иностранному языку: эффективность и критерии .....	242
<b>Д.Ф.Керимов</b>	
Анкетирование как метод исследования использования IT технологий в образовательном и тренировочном процессе .....	247
<b>S.A.Mirzaqobilova</b>	
Inklyuziv ta'limda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	255
<b>J.Q.Mirzajonov</b>	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati .....	260
<b>F.O'.Toshboltaev</b>	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni .....	264
<b>R.D.Mustayev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi .....	267
<b>S.A.Xayrullayev</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi .....	271
<b>N.M.Aliyev</b>	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlarini.....	275
<b>G.I.Otaboyeva</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlarini .....	279
<b>N.T.Abdullajonova</b>	
Germenevtik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati .....	282
<b>Y.H.Teshayeva</b>	
Ilmga yo'g'rilgan umr .....	286
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
<b>M.F.O'rmonova</b>	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida) .....	295
<b>S.A.Rahmonberdiyeva</b>	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari .....	298
<b>Sh.G'.Xasanov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash.....	303



UO'K: 811.111

**BINO-INSHOOTLAR QURILISHIGA OID TERMINLARNING XUSUSIYATLARI****ХАРАКТЕРИСТИКА УСЛОВИЙ СТРОИТЕЛЬСТВА ЗДАНИЙ****CHARACTERISTICS OF TERMS CONCERNING THE CONSTRUCTION OF BUILDINGS**

**Rahmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizi**   
Namangan muhandislik-texnologiya instituti PhD

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada terminologiya sohasida tadqiqotlar, olimlarning ilmiy qarashlariga to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga bino-ishootlariga oid terminlar tarjimasidagi qiyinchiliklar e'tifor etilib, ularga yechimlar aniq misollar yordamida ko'rsatilgan.*

**Аннотация**

*Данная статья посвящена исследованиям в области терминологии, научным взглядам ученых. При этом выделены трудности перевода терминов, относящихся к зданиям и сооружениям, и показаны пути их решения на конкретных примерах.*

**Abstract**

*This article focuses on studies in the field of terminology, scientific views of scientists. At the same time, the difficulties in the translation of terms related to buildings and structures are highlighted, and solutions are shown with the help of concrete examples.*

**Kalit so'zlar:** termin, terminologiya, terminshunoslik, atama, leksik, semantik, kategoriya, kategoriya, antroponim, toponim

**Ключевые слова:** термин, терминология, терминология, термин, лексический, семантический, категория, категория, антропоним, топоним.

**Key words:** term, terminology, terminology, term, lexical, semantic, category, category, anthroponym, toponym.

**KIRISH**

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va texnologiyalar taraqqiy etib borgan sari, yangi g'oyalar, yangicha tafakkur, yangi-yangi terminlar paydo bo'lib boraveradi. Shuni alohida qayd etish kerakki, ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi terminlarini tadqiq qilish, lug'atlar tuzish va ma'lum darajada tartibga solish jarayoni jahon tilshunosligida ham o'ziga xos xususiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ingliz va o'zbek tili bino-inshootlar qurilishi terminologiyasini har ikki tildagi variantlari bilan chog'ishtirma aspektda tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab terminlar tilshunoslar uchun alohida o'rganish obyektiga aylandi. "Terminologiyaning nazariy muammolari, muvaffaqiyatli rivojlanishi terminning yaratilishi va ishlash qonuniyatlarini shakllantirishga qaratilgan yangi ilmiy "terminshunoslik" fanining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Terminshunoslik yillar mobaynida bosqichma-bosqich rivojlanib keldi, har bir bosqichda yangi terminlar kirib kelib, maxsus soha rivoji uchun ma'lum bir darajada xizmat qiladi. Terminshunoslikning o'ziga xos jihatlari uning maxsus leksik til birligida ko'rinadi. Bular esa ma'lum bir soha doirasidagina qo'llanilib, shu sohaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishga xizmat qiladi. Terminologiya - "ma'lum bir fan, san'at, muallif yoki ijtimoiy guruhga tegishli texnik atamalar to'plami". Demak, terminologiya ma'lum bir soha uchun tegishli bo'lgan terminlarning izohli lug'ati hisoblanadi".

Terminologiya va bino inshootlari qurilishi sohasiga oid terminlarning ilmiy jihatlari xorij, rus va o'zbek tilshunos hamda terminshunoslari: Vyuster, G.O.Vinokur, A.A.Reformatskiy, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, H.Dadaboyev, O.S.Axmedov, G.I.Ergashova, X.D.Paluanova, Sh.N.Abdullayeva, F.X.Qosimova va S.M.A'zamovlarning ishlarida keng talqin qilingan. (4. 255)

## ILMIY AXBOROT

Xususan, bino inshootlari qurilish terminlari bo'yicha A.S.Grinev terminlarning qiyosiy jihatidan o'rgangan, A.Z.Abduraxmanova terminlarning lingvistik tomonlariga e'tiborini qaratgan. L.N.Cherkasova va M.M.Bekmurodovlar soha terminlarining leksik-semantik xususiyatlarini, N.Aminakova terminlar shakllanishi va tuzilishining morfologik maydoni borasida, o'zbek tilshunosligida qurilish terminologiyasi K.Sapayevning ishlarida atroflicha talqin etilgan. (6,255) N.SH.Saloydinova arxitektura-qurilish terminlarning leksik-semantik talqini va leksik birliklarning tarjimalarda ekvivalentlik xususiyatlarini, M.M.Qambarova arxitektura-qurilish terminlarning semantik va funksional jihatlari, ularning til korpuslarida aks ettirishning ilmiy va nazariy asoslarini va N.I.G'ofurova qurilish sohasi terminlarining ko'rsatma va yo'riqnoma, reklama va ilmiy matnlarining tarjima qilish usullarini tadqiqot ishlarida yoritib berishgan. Bizning tadqiqot ishimiz yuqorida keltirilgan ishlardan farqli ravishda ingliz va o'zbek tillarida bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning leksik-semantik, struktur-semantik va stilistik jihatlari, shu bilan birgalikda soha terminlarining antroponim va toponimlarda berilishini ilmiy nazariy jihatdan asoslab keltirilishi jihatidan dolzarbligini belgilaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

XIX asr boshlarida dunyo tilshunosligidagi yana bir yangilik – bu terminlarning yaralish va yaratilish xususiyati bilan bog'liq jarayonlardir. Tilshunos olimlar tomonidan terminning yaratilishi, lingvistik xususiyatlarini yoritish uchun turlicha yondashuvlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, G.Kitrij terminlarni matematik formulalar bilan taqqoslab: "Terminlar odamlar ma'lum bir maqsadda muloqot qilayotganlarida ishlatiladi", - deya qayd etgan.(7,52) Bizningcha, zamonaviy terminshunoslar tomonidan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi darajasida bu kabi fikrlar inkor etiladi. Buning asosiy sababi, takomillashgan texnologiyalar tufayli vujudga kelgan ifodalar, ishoralar, ilmiy va boshqa terminlar umumiste'molda qo'llaniladigan yozma va og'zaki leksik birliklarning katta qismini tashkil etishidir. Turli tillarda terminologik tizimning shakllanishi, taraqqiy etishi, shuningdek, ularning o'ziga xos lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramay, ushbu muammo hozirga qadar muhimligini yo'qotmadi. Hozirga kelib termin tushunchasi tilshunoslarnigina emas, balki turli soha mutaxassislarini ham qiziqtiradigan masaladir.

N.P.Kuzkin tomonidan qayd etilgan ilmiy tasniflar o'z qiymatiga ega hisoblanadi. Olim terminni ilmiy chegarasini aniqlash maqsadida to'rtta asosiy yondashuvni qayd etgan. Jumladan:

- a) termin – bu mantiqiy ta'riflovchi vazifasini bajaruvchi so'zdir;
- b) termin – bu tushunchalarni nomlash vazifasidagi so'z;
- c) termin – bu o'ziga xoslikni (spesifiklikni) ifodalovchi so'z.
- d) termin – bu maxsus tushunchani ifodalovchi so'z .

Olimning terminlar chegarasidagi fikrlari ularning tahlil jihatidan kelib chiqqanligi bilan ham ahamiyatga egaligini ko'rish mumkin. Bular doirasida xaqiqatan termin bu maxsus tushunchani ifoda etadigan so'z birligi hisoblanadi. Uning doirasiga shu sohaga oid maxsus leksik birliklar kiradi. Termin mantiqan, nomlash va o'ziga xoslik chegaralarini albatta o'ziga xos chegara sifatida qo'yadi va shu doira ichida aylanadi. Terminning maxsus birligi va chegarasini o'zida bu vazifalar ta'siri doirasida ifoda etadi.

Shuningdek, tilshunos olim O.Ahmedov "termin" tushunchasini kategoriyaga tasniflab, ularga aniqlik kiritishda uning quyidagi to'rtta belgisiga asoslangan mezonlarni sanab o'tadi:

- 1) termin – asosan ot so'z turkumidan tashkil topgan so'z yoki so'z birikmasi;
- 2) termin muayyan tushunchani aniq ifodalaydi;
- 3) termin asosan o'zi mansub soha doirasida ishlatiladi;
- 4) terminda ko'p ma'nolilikka moyillik mavjud emas .

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

Darhaqiqat terminlarni yasalishi jihatidan tahlil etadigan bo'lsak, ular ko'pincha ot so'z turkumiga mansubligini ko'ramiz, termin muayyan bir tushunchani yaxlit ifoda etadi va o'ziga mansub maxsus doirasidagina tushunarli bo'ladi hamda termin biz bilamizki albatta bir ma'nolikka moyil bo'lib, ko'p ma'nolikni o'zida namoyon etmaydi. Terminlarning faol qo'llanilishi va keng tarqalganligini inobatga olgan holda yuqoridagi mezonning uchinchi belgisiga e'tibor qaratamiz, ya'ni termin asosan o'zi mansub soha doirasida ishlatiladi, deyilganda, ushbu jarayonda manba sifatida ma'lum bir sohaga oid matnlarni tanlab olish va tahlil qilish tushuniladi. Bunday holatda

nutqiy birliklarning ahamiyati ham muhim hisoblanadi. Shunisi ham borki, ba'zi hollarda tadqiqot obyekti hisoblangan terminlarni nafaqat qurilish sohasi doirasida, balki "tashqi sferalar"dan (og'zaki nutq jarayonida, badiiy, ilmiy, hajviy adabiyotlarda) qo'llaniladigan terminologik birliklar ham manba sifatida foydalaniladi. Hozirgacha terminshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilib, terminshunoslarning aksariyat ishlarida terminlar va so'zlar o'rtasidagi tafovut, ularning o'zaro farqli jihatlariga tavsif berishga urinishlar bo'lgan bo'lsa-da, bu masala oxirigacha to'liq o'rganilmagan degan xulosaga keldik.

Terminning ya'na bir xususiyatlaridan biri bu uning o'zgaruvchanligidir. Til doimo bir xil emas, til o'zgaruvchan. "Til muntazzam ravishda o'zgarib turadi. Hayot tarzi o'zgarishi, yangi texnologiyalarni vujudga kelishi yangi tushunchalarni tilga kirishini ta'minlaydi. Shuning uchun, yangi terminlar ham vujudga kelishi bejiz emas. Ilmiy paradigmalarda o'zgarishi tushunchalarning o'zgarishiga olib keladi, tushunchalarning o'zgarishi yangi terminlar paydo bo'lishini ta'minlaydi". Zeroki, jamiyat ilm-fan va yangi texnologiyalar rivojlanib borar ekan nutqimizga yangi terminlar paydo bo'lib boraveradi. Terminlar shu soha doirasida ishlovchi mutaxassislarni sohalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini belgilovchi va shu sohaga oid bilimlarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, tosh qadimda Britaniyada og'irlik o'lchov birligi sifatida ham ishlatilgan. 1389-yilda qirollik nizomi tabiiy toshini 14 funt, jun qopini esa 26 ta tosh qilib belgiladi. Variant og'irlikdagi savdo toshlari saqlanib qolmoqda, masalan, 5 funtlik shisha tosh. Tosh hali ham Britaniyada odamlar va yirik hayvonlarning vaznini belgilash uchun keng qo'llaniladi.

Birlashgan Qirollik va Irlandiyada tosh an'anaviy ravishda vazn o'lchash uchun ishlatilgan. Angliya va Shimoliy Evropaning boshqa german tilida so'zlashuvchi mamlakatlari kabi boshqa mamlakatlar ilgari savdo maqsadlarida ko'plab standartlashtirilgan toshlar dan foydalanilgan. Shunday qilib, ba'zi toshlar raxit kasalligini davolashda ishlatilgan. Bundan ko'rinib turiptiki, demak tosh nafaqat qurilishda balki o'lchov birligi sifatida shuningdek kasalikka davo sifatida ham qo'llanilgan.(12,230)

Buyuk Britaniyadagi qurilish toshlarining aksariyati ohaktosh va qumtoshlardan iborat. Unda bir nechta shifer va granit maydonlari mavjud. Umuman olganda, Britaniyaning janubida ohaktoshlar, shimoliy qismida esa qumtoshlar ustunlik qiladi. Portlend kabi ba'zi ohaktoshlar hamma joyda ishlatilgan. York toshining yana bir qumtosh turi, ayniqsa, asfaltlash uchun keng qo'llaniladi. Ohaktoshlar - bu cho'kindi jinslar toifasi, kaltsiy karbonat nurlanish zarralari cho'kish natijasida hosil bo'lgan mutanosib ravishda katta, yumshoq va oson ishlov beriladi. Shunday qilib, toshlar o'zlarining mo'jizalari bilan ko'milgan holda, barchamizga ma'lum bo'lgan, insonning foydalanishga yaroqli bo'lish ishtiyoqiga berila boshladi.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan odamlar tobora murakkabroq tosh asboblarni yaratdilar. Bularga qo'l boltalari, yirik ov ovlash uchun nayza uchlari, o'simlik tolalarini maydalash va kiyim-kechak tayyorlash uchun hayvonlarning terisi va terilarini tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qirg'ichlar kiradi.

Qadimgi dunyo zamonaviy insonga doimo katta qiziqish uyg'otdi, chunki u o'z vaqtida uzoq bo'lganligi sababli. Arxitektura va qurilish sohasida tajribasi bo'lmagan va hozirda qanday qilib uylar qurilishini aniq anglamaydigan odamlar va ular zamonaviy texnologiyalarga ham, qurilish uchun zamonaviy materiallarga ham ega bo'lmagan qadimgi dunyoda qanday qurilganliklari haqida o'ylashdan qo'rqishadi. Ayni paytda, bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan ko'plab inshootlar bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Qadimgi Misr me'morchiligining o'ziga xos xususiyati shundaki, boshqa xalqlar hali tarixgacha bo'lgan davrda misrliklar allaqachon rivojlangan san'atga, shu jumladan me'morchilikka ega edilar. Yana bir muhim xususiyat - Qadimgi Misr hududida o'rmonlarning yo'qligi. Shu sababli uylar g'ishtli bo'lib, g'isht va toshdan qurilgan (asosan Nil vodiysida qazib olingan ohaktosh, qumtosh va granitdan). Bularning barchasi faqat saroylar va qabrlarga tegishli edi, ammo oddiy uylar oddiy Nil loyidan qurilgan bo'lib, ular quyoshda qurib, qurilish uchun yaroqli bo'lib qoldi.

Yevropaliklar Shimoliy Amerikaga joylashganda, ular o'zlarining me'morchilik an'analari va qurilish texnikasini olib kelishgan. Bunga Amerikadagi eng qadimiy binolar misol bo'la oladi. Qurilish mavjud resurslarga bog'liq edi. Yog'och va g'isht Yangi Angliya, O'rta Atlantika va janubiy qirg'oqda eng keng tarqalgan qurilish materiallari edi. Bu 19-asrning oxirigacha, Amerika Qo'shma

## ILMIY AXBOROT

Shtatlari arxitekturasi sezilarli tashqi o'zgarishlarga duchor bo'lmagan vaqtgacha bo'lgan, avvaliga jamoatchilik tomonidan juda g'alati va xunuk deb qabul qilingan.

Qadimda bino qurish uchun ishlatilgan materillar va asboblari boshqa davlatlar kabi ingliz terminologiyasida ham ko'payganligi sababli bu sohaga kirib kelgan yangi terminlar o'rganishga to'g'ri keldi. Masalan, *arch-arka, chimney- mo'ri, cupola- gumbaz yoki tom, dormer-tomning tasviriy ishlangan tuynuksimon oynasi, pendentive- burchaksiz shakl, buttress- tirgak (devorni ushlab turishi uchun), pediment-peshtoq, balconet-balkon, keystone- arkaning eng yuqori nuqtasiga kjoylashuvchi tosh, basement- yerto'la, capital- bosh ustun.*

Hozirgi zamonaviy bino-inshootlar qurilish texnologiyasi asta - sekinlik bilan taraqqiy eta boshladi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, barcha sanoati rivojlangan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan qurilish materiallariga oid terminlar *metal, tosh va g'isht, armatosh, temirbiton, yog'och va plastmassalardan* iboratdir.

Bizga ma'lumki, *tosh va g'isht* eng qadimgi qurilish terminlari hisoblanib, tuzilishi oddiy, sodda asbob-uskunalar asosida tayyorlangan asrlar davomida *tosh* asosiy qurilish termini bo'lib kelgan. Tosh davrida juda ko'p inshootlar qayta ishlanmagan toshdan qurilgan.

Qurilish tarixini o'rganish hozirda har qachongidan ham ko'proq insoniyatning barqaror kelajagi shakli haqidagi hozirgi munozaralarning markazi hisoblanadi. Odamlar avvallari turli xil qurilish materiallaridan binolar ko'priklar, amfiteatrlar, to'g'onlar, yo'llar, kanallar va boshqa inshootlar qurdilar. Shuning uchun ham hozirgi kunda ishlatiladigan qurilish asboblari va materillari uzoq o'tmishga borib taqaladi.

**XULOSA**

Demak, yuqorida keltirilgan yondashuvlar tahliliga xulosa qilib aytishimiz mumkinki, turli tilshunoslarning terminga ta'rif berish borasidagi ko'p say-harakatlari shu paytgacha yana davom etib kelayapti, ular bir nuqtada to'xtab qolgani yo'q. "Termin" tushunchasi ko'pqirrali bo'lganligi sababli unga biryoqlama ta'rif berish borasida qiyinchilik tug'iladi. Shuning uchun, ham termin tushunchasini ta'riflash ham uning definitiviyasini formulirovka qilish shu paytgacha terminshunoslikning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. O'ylaymizki, yuqorida keltirilgan ta'riflarda "termin" va "terminologiya" tushunchalarining mohiyati to'g'ri va aniq ochib berilgan. Ingliz va ozbek tillaridagi bino-inshootlari qurilishi sohasi terminlarini tadqiq etish ham tilshunoslik sohasining o'ziga xos tomonlarini va ushbu soha doirasidagi terminlarni leksik-sematik jihatidan keng yoritib berish ularni alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishni va tahlil etishni lozim topdik.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аъзамов С.М. Инглизча - ўзбекча тўқимачилик ва енгил саноат терминларининг структур-семантик таҳлили. Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) ... дисс. – Андижон, 2021.
2. Абдуллаева Ш.Н. Ҳазначилик соҳасида қўлланиладиган молиявий-иқтисодий терминларнинг чоғиштирма тадқиқи (инглиз, ўзбек, рус тиллари мисолида). Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. – Тошкент, 2018. – 161 б.;
3. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 256 б.;
4. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. – М.: Высшая школа, 1972. – 370 с.
5. Алексеева Л. Проблемы термина и терминологии. – Перм. гос. ун, 1998. – С 58.
6. Бекмуродов М.М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: На материале таджикского и английского языков: Дисс. ... канд. филол. наук – Душанбе. 2002. – 166 с.;
7. Бекмуродов М.М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: На материале таджикского и английского языков: Дисс. ... канд. филол. наук – Душанбе. 2002. – 166 с.
8. Вюстер Э. Введение в общую терминологию и терминологическую лексикографию. – Нью-Йорк, 1999. 215 с. ([Introduction to general terminology and terminological lexicography]. – New York, 1999.
9. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. М.: Изд-во ЛИТЕРА, 1939. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – С. 3-54.
10. Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар. Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018.;
11. Лэйчик В.М. Когнитивное терминоведение – пятый этап развития терминоведения как ведущей научной дисциплины рубежа XX-XXI веков. – М.: Рязань, 2007. – Вып. 5;
12. Ҳожиёв А Тилшунослик терминларнинг изохли луғати. – Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2002. –Б. 56.

13. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий- типологик тадқиқи. Филол. фан .н...дис. –Тошкент. 2009 – Б.27 14.
14. Минакова Н.А. Особенности формирования и структура строительной терминологии русского языка: Дисс. ... канд. филол.
15. Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол.фан. д-ри. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 88 б.;
16. Қосимова Ф.х Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. – Фарғона, 2021 .; – М., 2016. – 178 с.;
17. Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 1985. – 165 с.;
18. Saloydinova N.SH. Arxitektura-qurilish terminlarining leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida). Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023.;
19. Qambarova M.M. Ingliz va o'zbek tillarida arxitektura-qurilish terminlari semantikasi hamda ularning korpuslardea berilishi. Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD). ... diss. – Toshkent, 2023.; Gofurova N.I. O'zbek, ingliz va rus "Qurilish sohasi" terminlari tarjimasini masalasi (bino-ta'miri yo'nalishi asosida). ). Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD). ... diss. avtoref. – Andijon, 2023.;
20. Солиева М.А. Структурно – семантический анализ текстильных терминов в таджикском и английском языках. Дисс...канд.филол.наук. –Душанбе, 2014. – С.18.
21. Черкасова Л.Н. Лексико-семантическая характеристика строительной терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 1998. – 168 с.;
- наук – М., 1985. – 141 с.;